



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2022 - yil 15 - yanvar

VI-42-8-8-0-K/22

Surxondaryo viloyati hokimligi

Surxondaryo viloyatida istirohat bog'lari, parklar va tematik xiyobonlar egallagan yer maydonlarining 2022-yil uchun yer solig'i stavkalariga kamaytiruvchi koeffitsiyentlar qo'llash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-sonli Farmoniga asosan istirohat bog'lari, parklar va tematik xiyobonlar egallagan yer maydonlariga 2022-yil uchun yer solig'i stavkalariga kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash yuzasidan xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-sonli Farmoni (keyingi o'rinda - Farmon) ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov) va viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) ga:

bir hafta muddatda umumiy maydonining 60 foizida ko'kalamzorlashtirish obyektlari mavjud bo'lgan istirohat bog'lari, parklar va tematik xiyobonlarga hamda ularni ishonchli boshqaruv va ijaraga olgan, investitsion majburiyatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirib borayotgan va soliq qarzdorligi mavjud bo'lmagan tadbirkorlarga nisbatan ushbu faoliyat turi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalariga kamaytiruvchi koeffitsiyentlar qo'llanishi yuzasidan xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasiga aniqlashtirilgan ro'yxat taqdim etish;

umumiy maydonining 60 foizida ko'kalamzorlashtirish obyektlari mavjud bo'lgan istirohat bog'lari, parklar va tematik xiyobonlarga hamda ularni ishonchli boshqaruv va ijaraga olgan, investitsion majburiyatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirib borayotgan va soliq qarzdorligi mavjud bo'lmagan tadbirkorlarga nisbatan ushbu faoliyat turi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalariga kamaytiruvchi koeffitsiyentlar qo'llash yuzasidan ma'lumotlarni taqdim etish;

istirohat bog'lari, parklar va tematik xiyobonlar uchun yer maydoni mavjud bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan hisoblangan yer soliqlari bo'yicha soliq hisobotlarini o'z vaqtida taqdim etib borishlarini nazoratga olish vazifalari yuklansin.

3. Viloyatdagi istirohat bog'lari, parklar va tematik xiyobonlar egallagan yer maydonlariga 2022-yil uchun yer solig'i stavkalariga ilovaga muvofiq taklif etilgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar jamoatchilik muhokamasiga (regulation.gov.uz) qo'yilsin va muhokama natijalariga ko'ra, huquqiy ekspertizadan o'tkazilsin hamda o'rnatilgan tartibda xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasi muhokamasiga kiritilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



Choriyev A. R.

Халқ депутатлари Сурхондарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 15 январдаги
VI-42-8-8-0-К/22-сон қарорига
1-илова

**Surxondaryo viloyatida istirohat bog'lari, parklar va tematik xiyobonlar egallagan yer
maydonlariga 2022-yil uchun yer solig'i stavkalariga taklif etiladigan kamaytiruvchi
koeffitsiyentlar**

T/r	Hudud nomi	Qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdori
1	Termiz shahar	1,0
2	Angor tumani	0,7
3	Oltinsoy tumani	0,7
4	Boysun tumani	0,7
5	Muzrabot tumani	0,7
6	Denov tumani	1,0
7	Jarqo'rg'on tumani	0,7
8	Qumqo'rg'on tumani	0,7
9	Qiziriq tumani	0,7
10	Sariosiyo tumani	0,7
11	Termiz tumani	0,7
12	Sherobod tumani	0,7
13	Sho'rchi tumani	0,7
14	Uzun tumani	0,7
15	Bandixon tumani	0,7